

XORAZM MUSIQA MA'DANIYATI HAQIDA TUSHUNCHA

Raxmatova Dilara Zayniddinovna

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani 82-maktab musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa san'atining murakkab sohalaridan biri bo'lgan, Xorazm musiqasining rivojlanish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqiyshunos, bazmgoh, nag'ma, mushkilot, tasnif, parda, rost, peshrav, pauza, noxun, nota, musavvoda, xattot, kitobat, manzur, manzum.*

KIRISH

Xorazmning obod zamonlarida yashagan va xorazmliklarning milliy pahlavonlaridan bo'lgan mashhur Yusufbek to'g'risida xalq orasida ko'plab rivoyatlar tildan-tilga o'tib yuradi. Yusufbek polvonlik bilan bir qatorda serzavq bir yigit bo'lib, sozandalikda ham mahorat sohibi ekan. Ko'hna Urganchning taniqli sozanda va go'yanda (ashulachi)lari har kuni uning majlisiga yig'ilib, sozu-suhbatlari bilan kunini o'tkazar ekanlar. Yusufbek dutor kuylarining barchasini bilibgina qolmasdan, boshqa sozandalarga qaraganda soz chertishdagi iqtidori baland ekan. Ul kishi sozga g'oyat ixlosmand bo'lganidan dutorni qo'lga olgach, o'zi bilan aksari kuylarni charchagunicha chalib bo'lib, dutorini o'zining bazmgoh mehmonxonasini devoriga suwab qo'yar ekan. Hozir ham Yusufbekning usha bazmgoh mehmonxonasi xarobalaridan birgina devori saqlangan bo'lib, "uning tagida bir kecha tunab yotib qolgan kishilarning quloqlariga har turli soz ovozlari eshitiadi", degan hikoyalarga qaraganda ul zamonda Xorazmning yagona musiqashunosi Yusufbek bo'lib chiqadi.

Ul zamondagi musiqa asboblari bizga ochiq bir suratda ma'lum bo'lgani dutor bo'lib, boshqa sozlar haida biror so'z yozilgan va aytilgan bo'lmasada, fikrimizcha, ul zamondagi soz asboblari, umuman, turkiy urug'lar orasida qo'llanilgan cholg'ular bo'lgani muqarrardir. Bizning yuqorida bergan izohimizga qaraganda, Xorazm musiqasi taxminan Sulton Muhammad Qutbiddin va Jaloliddin Xorazmshoh zamonlarida ancha yuksaklikka ko'tarilganligi ma'lum. Bu davrdan to Xorazm musiqasi rivojining ikkinchi davrigacha bo'lgan yillarda Xorazm musiqasi va musiqashunosligi haqida batafsil ma'lumot berish ancha qiyin ish bo'lgani tufayli shu qisqa ma'lumotlar bilan cheklanishimizga to'g'ri keladi. Endi Xorazm musiqasi taraqqiyoti va tanazzul holatlarini ochiq va ravshan ko'rsatib beradigan ikkinchi bobga o'tamiz.

Muhammad Rahimxon I zamonida (1805-1825) mashhur bo'lgan xivalik musiqiyshunos NIyozjon Xo'ja Buxoro shahriga borib, qadimgi "Shashmaqom" 11 nag'malarini tanbur sozi bilan o'rganib, Xivaga qaytgan edi. Xivaga qaytishi bilan uning iqtidor va dovrug'i Xorazim musiqiyshunoslari orasida katta e'tiborga molik

bo'ldi va ularning diqqatini o'ziga jalb qildi. Niyozjon Xo'jadan boshqalar, shu jumladan, Maxzumjon Qozi, Usta Muhammadjon Sandiqchi kabilar shashmaqom nag'malarini to'la o'rgandilar. Ular o'z o'rnida o'rangan nag'malarini havaskor shogirdlariga ham o'rgatishni boshlab, anchagina tanburchi shogirdlarni yetishtirdilar. Bu sozandadan yetishib chiqqan shogirdlarning har biri haqida batafsil ma'lumot berishni unchalik lozim topmaganimiz uchun ularning ichidan ba'zilarini tanishtirish bilan cheklanamiz. Niyozjon Xo'janing shogirdi bo'lgan Muhammadjon Sandiqchidan Abdusattor Mahram Xo'jash Mahram o'g'li ta'lim oildi. Bu kishi xalq va hukumat orasida obro'li bir zot bo'lgani sababli shashmaqom nag'masi borgan sayin rivojlana boshladi.

Muhammad Rahimxon I zmonida ko'zga ko'ringan dongdor musiqiyshunoslar ana shu biz yuqorida zikr etgan zotlardir. Bu zamonda musiqa sohasida hech bir o'zgarishlar, yangiliklar o'rtaga tashlanmadi. Faqat bu zotlar shashmaqom nag'masiga nisbatan xalq orasida ishtiyoq va muhabbat uyg'onishiga sabab bo'ldilar. Bundan keyin Muhammad Aminxon zamoni boshlanadi.

Muhammad Aminxon zamoni

Muhammad Aminxon Musiqaga shu darajada havas qo'ygan ediki, yuqorida nomlari zikr etilgan musiqiyshunoslar ishtirokida kuy-qo'shiq majlislarini tashkil etardi. Uning zamonida Abdusattor Mahramdan Usta Xudoybergan Etikchi, Usta Xudoybergan Etikchidan "Komit" taxallusli Pahlavon Niyoz Mirzaboshi Abdulla Mufti o'g'li Shashmaqom nag'malaridan mukammal ta'lim oldilar. 1853 (hijriy 1271) yilda

Muhammad Aminxon Saraxs qal'asi qamali paytidagi jangda halok bo'lishi natijasida xalq orasida turli isyonlar, taxt uchun kurashlar boshlangani tufayli musiqiy sohasi ham turg'unlikka yuz tutdi.

Abdullohxon zamoni

Bu xon Muhammad Aminxondan so'ng 1853 (hijriy 1271) yilda taxtga o'tirdi. Garchi Abdullohxonning o'zi tanbur va g'ijjak sozlarini chalishni bilsada, ammo musiqiy sohasidagi sustlik davom etdi.

Qutlimurodxon Abdullohbek o'g'li zamoni

1854-(hijriy 1272) yilda Abdullohxon o'ldirilgandan so'ng uning o'g'li Qutlimurodxon taxtga o'tiradi. Besh oydan keyin bu xon ham o'ldiriladi. Shu zaylda musiqiy sohasi avvalgi sustligida davom etadi.

Sayyid Muhammadxon zamoni

1854-(hijriy 1272) Sayyid Muhammadxon Qutlimurodxon o'rniga xon etib tayinlandi va to'qqiz yil davomida xonlik qildi. Uning zamonida Xorazm o'lkasi bir oz tinch bo'ldi. Shuning natijasida xalq ichida musiqaga e'tibor ortdi. Bu xonning o'zi ham dutor, g'ijjak sozlarini chala olar va tez-tez yuqorida nomlari zikr etilgan musiqiyshunoslarni to'plab, kuy-qo'shiq majlislarini tashkil etardi. Biroq Sayyid

Muhammadxon zamonida ko`zga ko`rinarli musiqiyshunoslar yetishib chiqmadi va xalq orasida birin-ketin turli isyonlar, g`alayonlar davom etib turishi bilan musiqiy sohasi ham keying darajaga tushib qoldi. Ba`zi qulay damlarda esa yana musiqiy sohasi avvalgi mavqeyini egallab, unga e`tibor kuchayardi.

Muhammad Rahimxon Soniy zamon

1863-yil (hijriy 1281 yil) Sayyid Muhammadxon o`rniga taxtga o`tirgan Muhammad Rahimxon Soniy, musiqiy ilmiga o`ta darajada ixlosmand bo`lib, uning zamonida musiqiy sohasi o`zga bir rang, o`zga bir hol kasb etdi. Ilgari xalq orasida musiqiy qiziqish ozroq bo`lgan bo`lsa, endi musiqiy sohasi beqiyos tarqaldi. Milliy kuylarning vujudga kelishiga imkon tug`ildi. Xususiyy musiqiyshunos mutaxassislar yetishib chiqib, Shashmaqom nag`malarining “Mushkilot” 12, “Tasnif” 13 qismlari ayrica ahamiyat kasb etib, ularga taalluqli shashmaqom nag`malari avvalgisidan ancha o`zgarib, bir necha qo`shimchalar qo`shilib, tiklandi.

“Xorazm chizig`i” 14 (nota) sining ixtirosi

Pahlavon Niyoz Mirzaboshi o`zining g`oyasini o`rtaga tashlab hamda Muhammad Rahimxon Soniyning amrini bajarmoq uchun shu tariqa ixtiro etgan “chizig`ini” isbot etmoqqa kirishdi. Avvaliga u “Rost” maqomini qoralamasini topshiradi. Bundan so`ng “Rost” maqomi tugab “Peshrav” 15 i boshlanadi. Pahlavon Niyoz Mirzaboshi shu maqomni qog`ozga ko`chirganida tanburning o`n sakkiz pardalariga o`girib, ya`ni parda oraliqlari masofalarining keng va torligiga qarab, gorizontol chiziqlar chizib, tanbur pardalarini belgilaydi. Har pardada shul maqomning usuliga muvofiq, (“pauza”) lar bilan birga, pastdan va yuqoridan necha bor noxun urilgan bo`lsa, shu chizgan chizig`ining ostki va ustki taraflariga shul noxunlarning soni qadar nuqtalar qo`yib chiqadi. Mana shu usulda qoralamani chizib tugatib, Muhammad Rahimxon Soniyga taqdim etdi.

“Xorazm chizig`i” ning nashri, taraqqiyoti va isloh etilishi

Pahlavon Niyoz Mirzaboshi tarafidan ixtiro etilgan va yuqorida tafsiloti keltirilgan chiziq tartiboti Muhammad Rahimxon Soniyga taqdim etilgandan so`ng xon o`zining musiqiy muallimi bo`lmish “Mirzo” tahallusli mashhur musiqiyshunos Muhammad Rasul Mirzaboshi Pahlavon Niyoz o`g`liga butun Shashmaqom nag`malarini Pahlavon Niyoz Mirzaboshi tarafidan ixtiro etilgan chiziq (nota) yo`sini bo`yicha kitob holiga keltirishni buyurdi. Muhammad Rasul Mirzaboshi xonning ushbu buyrug`ini amalga oshirmoq uchun bir necha oy sa`yi-harakat qilib, butun Shashmaqom nag`malarini yuqoridagi tartibga muvofiq kitobga ko`chirdi. Shu tariqa Shashmaqom nag`malari chiziqli kitobini bitirib, ikki jildidan iborat bo`lgan musavvoda (savod chiqaruvchi darslik-B.M.) nusxasini xonga taqdim etdi. Xon bu nusxalarni o`zining mohir xattot kitoblaridan Xudoybergan Muhrkan, Mulla Ismoil, Muhammad Yusufbek va ular singari kotiblariga topshirib bir nechta qo`lyozma kitob tayyorlashni buyurdi. Muhammad Rasul Mirzaboshi Shashmaqom nag`malarini

Pahlavon Niyoz Mirzaboshi ixtiro etgan chizig'iga muvofiq kitobat qilish uchun quyidagi yo'lni tutdi:

1. Tasnif (Mansur).
2. Mushkilot (Manzum) 16 qismlariga bo'ldi.

Shashmaqom nag'malarining bir qismi xonandalar ijrosida bajarilsa, ikkinchi qismiga kirgan nag'malar esa aytimsiz faqat cholg'uda ijro etiladi. Ulardan biri chalinadigan kuylardan iborat bo'lsa, ikkinchisi xonandalar tomonida aytiladigan nag'malardir. Yana Muhammad Rasul Mirzaboshi Shashmaqom nag'malarini o'sha chiziqqa o'tkazmoqchi bo'lganida mana shu tomonini nazarda tutib, "Tasnif" qismiga kirgan butun nag'malarni alohida bir kitob qilib, ikki jildli chiziqli kitoblar nusxalarini yaratib, shu tariqa Shashmaqom nag'malarini butunlay chiziqqa o'tkazib tugalladi. Mana shu tariqa vujudga kelgan chiziqli kitoblardan havaskor kishilar ham nusxa ko'chirib ola boshladilar. Pahlavon Niyoz Mirzaboshining ixtiro qilgan (nota)si o'zining o'g'li va shogirdi Muhammad Rasul Mirzaboshining g'ayrati natijasida xalq orasida tarqalib, ko'plab ixlosmandlar bu (nota) kitoblar vositasida Shashmaqom nag'malarini o'rganishga kirishdilar. Hozirda aksari kishilar bu (nota) kitoblaridan foydalanmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O. Matyoqubov, R. Boltayev, H. Aminovlarning "Xorazm tanbur chizig'i" (T.2009.B 35-37) kitoboda qo'shimcha ma'lumot berilgan.
2. Polvonniyoz hoji Yusupov. "Yosh Xivaliklar tarixi". Urganch, "Xorazm" nashriyoti, 1999 y
3. Musiqa lug'ati. I.A.Akbarov. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1987 yil. (5-219-225 b)
4. Мурадов М. К., Халикова М. К. МУЗЫКАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2018. – №. 7. – С. 60-61.